

## OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGI

**Jo'rayev Sobitali Sobirjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti  
mustaqil izlanuvchisi, kapitan

### ANNOTATSIYA

*Maqolada ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarini kasb-hunarga yo'naltirishda oila, mahalla va maktab hamkorligining o'rni tahlil qilingan. Kasb-hunarga yo'naltirishning bugungi kundagi ahamiyati atroflicha o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *oila, mahalla, maktab, hamkorlik, kasb-hunar, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

### ABSTRACT

*The article analyzes the role of family, neighborhood and school cooperation in guiding children without parental care to the profession. The importance of career guidance today has been thoroughly explored.*

**Key words:** *family, neighborhood, school, cooperation, profession, teacher, student.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируется роль семейного, соседского и школьного сотрудничества в направлении детей, оставшихся без попечения родителей, в профессию. Важность профориентационной работы на сегодняшний день изучена достаточно подробно.*

**Ключевые слова:** *семья, соседство, школа, сотрудничество, профессия, учитель, ученик.*

### KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hamkorlik muhitini tashkil etish, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarini kasb-hunarga tayyorlashda oila, maktab va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi. Ana shu maqsadda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiysi ishlab chiqilib, yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum natijalarga erishildi. Zero, 2020 yil 23 sentyabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida aniq maqsadlar bo'yicha ijtimoiy-tarixiy tajribalar asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga, ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim

va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan masalalar belgilab berilgan. Yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliv maqsad va vazifalarini singdirish bugunning istiqbolli rejasidir. Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" yo'nalishidagi bola tarbiyasida oila, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Mazkur vazifalarning davomiyligini ta'minlash va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi 175-sod qaroriga ko'ra "Barkamol avlod tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiysi" qabul qilindi. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatiga asos solindi.

Mazkur qaror bilan to'rt yo'nalishdan iborat "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarining namunaviy tarkiblari, shuningdek, Jamoat kengashining dastlabki, yig'ilishi qarori bilan Jamoat kengashining Nizomi tasdiqlangan. Nizomdan kelib chiqib, Jamoat kengashining asosiy vazifalari sifatida quydagilar belgilangan:

1. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, o'zaro munosabati va mas'uliyatini kuchaytirishda noto'liq oila bolalarini ma'naviy-axloqiy muhitini sog'lomlashtirishda gerontopedagogika, milliy qadriyat va madaniyatni rivojlantirish.

2. Jamoat kengashlari faoliyatini metodik ta'minlash, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

3. O'quvchilarni dars jarayoniga to'liq jalb etish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash.


4. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, ta’lim tizimidagi islohotlar haqida o’quvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni uzviy xabardorligini ta’minlash.

5. O’quvchilarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash.

Mazkur muammoni o’rganish maqsadida tadqiqot isi olib bordik. Tadqiqot doirasida ota-onas qaramog’isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashga va maktab hamkorligini ta’minlash ota-onas qaramog’isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashning muhim vazifasi sifatida belgilandi. Mahalla, oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko’rinishga ega bo’lib, tadqiqotda mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik ta’minotini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Motivatsion bosqichda integratsiya jarayonini o’qituvchi va ota-onalar tomonidan to’g’ri anglanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi va “integratsiya - bu integrativ faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni aks ettiruvchi kasb-hunarga tayyorlashga yo’naltirilgan o’qituvchi va noto’liq oiladagi ota yoki onalarning o’zaro pedagogik munosabatlarining yangi darajasi”, degan tushuncha qaror toptiriladi.

Kommunikativ-faoliyatga yo’naltirilgan bosqich o’qituvchi va ota-onas qaramog’isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashni uyg’unlashuvni, shuningdek, mahalla, oila va maktabning pedagogik vazifalarining o’ziga xosligi, ularning pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini anglashiga imkon beradi. Shuning uchun kasbiy faoliyatga yo’naltirilgan bosqichda o’qituvchi va ta’lim muassasasining standart talablari doirasida integrativ pedagogik faoliyatini hamkorlikda loyihalash va amalga oshirish, shuningdek, mazkur faoliyat natijalari asosida ota-onas qaramog’isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda o’zaro birgalikda hal etilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Tadqiqot natijalari asosida tarbiyalanuvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning tashkiliy-integrativ modeli ishlab chiqildi. Nazariy tahlil asosida tarbiyachining kasbiy madaniy faoliyatini tashkil etishda quyidagi nazariy-metodologik asoslarga tayanish lozimligi aniqlandi: tizimli-faoliyatga doir yondashuv; ijtimoiy-madaniy yondashuv; sheriklik-rolli yondashuv.



### 1-rasm. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini kasb - hunarga tayyorlashning tashkiliy-integrativ modeli

Mahalla, oila va maktab hamkorligining pedagogik ta'minotini amalga oshirish bosqichlari, har bir bosqich samaradorligi mezonlarini aniqlash orqali shunga amin bo'lindiki, ularning har biri xususiy shkala bo'yicha o'lchanishi va baholanishi lozim.

Ularning hammasi uchun umumiyligi shkala sifatida natijalarni darajaviy-yuqori, o'rta va past tavsifi asosida tahlil etish imkoniyati aniqlandi. Mahalla, oila va maktab hamkorligining murakkabligi va ko'p o'lchamga egaligini hisobga olib, har bir daraja uchun ko'rsatkichlar aniqlashtirildi.

Tashkiliy texnologik komponent loyihalash bosqichlari, metodlari, pedagogik shart-sharoitlari va shakllarini to'g'ri tanlash va uyg'unligini ta'minlashni talab etadi. Mazkur bosqich tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan tashkil etiladigan kasbiy madaniy faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda samaradorligini baholash imkonini beradi.

Diagnostik komponent erishilgan natijalarni nazariy jihatdan asoslash va statistik ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy hamkorlikning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi:

makro daraja: tarbiyalanuvchilarni kasb-hunarga tayyorlashga xizmat qiluvchi ta'limiy-tarbiyaviy va madaniy muassasalar hamkorligi;

mikro daraja: Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining hamkorlikdagi kasb-hunarga tayyorlash faoliyati;

tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirish darajasi: o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish va namoyon etishni ta'minlash.

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan tashkil etiladigan kasbiy-madaniy faoliyatini loyihalashtirishning texnologik modelini eng muhim jihatni ikkinchi bir tomonidan tarbiyachining kasbiy-madaniy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish, ikkinchi jihatdan tarbiyalanuvchilarni kasbiy madaniy faoliyatdan qoniqish darajasini kafolatlash imkoniyatini taqdim etishidir.

### 1-jadval

Ota-onada qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda mahalla, oila va maktab hamkorligini ta'minlash samaradorligi ko'rsatkichlari

Darajasi	Mahalla, oila va maktab hamkorligini ta'minlash bosqichlari			
	Motivatsion	Kommunikativ-faoliyatga doir	Kognitiv	Refleksiv

<b>Yuqori</b>	Maktab va mahalla, oilalarda hamkorlik jarayoniga kasbiy va shaxsiy motivatsiya mavjud, ta'lim-tarbiya jarayonini birga amalga oshirish lozimligini tushunishadi	Ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda hamkorlikni amalga oshirishga ijodiy yondashuv, tayanch pedagogik qobiliyatlar shakllangan, kasbiy-pedagogik o'zini – o'zi rivojlantirishga yo'nalganlik.	Mahalla, oila va maktab hamkorligiga doir nazariy bilimlarga ega, nazariy tasavvurlar asosida birgalikda tadbirlarni loyihalashtiradi	Mahalla, oila va maktab hamkorligida mustaqil refleksiv tahlil ko'nikmasiga ega mexanizmlari shakllangan
<b>O'rta</b>	Mahalla, oila va maktab hamkorligi jarayoniga kasbiy motivatsiya mavjud, ta'lim-tarbiya jarayonini birga amalga oshirish lozimligini to'liq tushunishmaydi	Mahalla, oila va maktab hamkorligiga oid metodik tavsiyalarga asoslangan holda integratsiyani amalga oshiradi, ayrim pedagogik qobiliyatlar shakllangan, integrativ kasbiy vazifalarini hal etishda qiyinchiliklarga duch keladi	Mahalla, oila va maktab hamkorligiga doir nazariy bilimlarga ega, nazariy tasavvurlar asosida birgalikda kasb-hunarga tadbirlarni qisman loyihalashtiradi	Mahalla, oila va maktab hamkorligi faoliyat refleksiyasini tayyor namuna asosida amalga oshiradi, hamkorlikka tayyorgarlik darajasi etarli emas
<b>Quyi</b>	Mahalla, oila va maktab hamkorligi jarayoniga pragmatik motivatsiya mavjud, jarayonni birga amalga oshirish istagi mavjud emas	Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga tayyor emas, kasbiy qobiliyatlar shakllanmagan, birgalikda tadbir va mashg'ulotlarni tashkil etishga qiynaladi	Mahalla, oila va maktab hamkorligiga doir nazariy bilimlarga ega emas, intuitiv tasavvurlar asosida birgalikda tadbirlarni qisman loyihalashtiradi	O'zining faoliyatini tahlil qilishga qiynaladi, o'z-o'zini adekvat baholay olish qobiliyati mavjud emas

Mahalla, oila va maktab hamkorligini ta'minlash orqali ota-onas qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda maktabning vazifalari quyidagicha belgilangan:

- o'quvchi yoshlarga puxta bilim berish;
- jamiyat ko'zda tutgan sifatlarda tarbiyalashni ta'minlash;
- o'zining o'quv-tarbiyaviy vazifalaridan oilani xabardor qilib turish;

Yuqoridagilardan tashqari mahalla, oila va maktab hamkorligini ta'minlash orqali bolalarni kasb-hunarga tayyorlash tashkiliy ishlari mavjud bo'lib, bular ota-onalar yig'ilish va anjumanlaridir. Mazkur yig'ilish va anjumanlarda juda ko'p muammolar: «Bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash», «Bolalar tarbiyasida ota-onaning obro'si», «Bolani oilada jismoniy va aqliy jihatdan tarbiyalash yo'llari» kabi

masalalar ko'rib chiqiladi hamda adekvat qarorlar qabul qilinadi. Ota-onalar kengashlarining ota-onalarning pedagogik savodxonlagini oshirish, ayrim (potronat oila) ota-onalar bilan ishslash, ota-onalarni maktab ishlariga ( mas'ullikka ) jalb etish kabi tashkiliy ishlar ham ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda mahallaning ham o'rni beqiyos, chunonchi:

1. Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida muntazam aloqada bo'lish.
2. Mahallada yashaydigan potronat oilalarning moddiy sharoitlarini o'rganib chiqish, moddiy yordamlar uyushtirish.
3. Bayramlarda alohida ularga yordam, tabriklarni tashkilotlar bilan birga uyushtirish.
4. Mahalla bilan hamkorlikda jinoyatga moyilligi bor bolalar istiqomat qiladigan potronat oilalarni hisobga olish va ular bilan ishslash.
5. Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga oilalarga g'amxo'rlik qilish.( To'garak, musobaqlar,suhbatlar, uchrashuvlar ).

## XULOSA

Mahalladagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turli to'garaklar, mahalla kutubxonasini tashkil etish, bular orqali potronat oila bolalari va tutingan ota-onalar ongiga sog'lom turmush tarzi tamoyillarini singdirish, ularni jamiyatdagi demokratik jarayonlar bilan, islohotlar bilan tanishtirib borish, ayniqsa "Kasb-hunar egallah" mavzusida oqsoqollar, mahallaning obro'-e'tiborli kishilar yordamida yoshlar, etim bolalar uchun davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javob kechalari tashkil etish, ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarining o'z oila a'zolari yoki atrofdagi kishilar tomonidan har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka erishish maqsadga muvofiq. Potronat oilalarga ijtimoiy yordam berish, kichik tadbirkorlikka sharoit yaratish, muammolarni chuqur o'rganish va yuqori tashkilotlarga ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berish zarur. Mahallada oilaviy sportni rivojlantirishga jiddiy yondashish, Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda sportni, uning ahamiyati va istiqboli haqida suhbatlashish, oilaviy sportni keng targ'ib etish lozim. Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, to'y-marosimlarida ko'maklashish, erta turmushga chiqish (balog'atga etmasdan, faqat diniy nikoh o'qitish) hollarini oldini olish kerak. Ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlash maqsadida ilmli bo'lishning xosiyati haqida taniqli mutaxassislarning, olimu-ulamolarning suhbatlarini, uchrashuvlarini o'tkazib turish. Mahalla aholisining madaniy hordiq

chiqarish masalasini hal etish (adabiyotshunos, jurnalist, adib, olimlar, madaniyat xodimlarining uchrashuvlarini, konsert va sahna spektakllarini tashkil etishni yo'lga qo'yish) va ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalar ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Umumiy xulosa shundan iboratki, ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni kasb-hunarga tayyorlash masalasi bo'yicha mahallalar, jamoalarni birgalikda hamkorlikdagi harakatlari yaxshi natijalarga olib keladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 fevraldag'i "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4185-son Qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. 2.Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 12 avgustdag'i "Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 263-son Qarori.
3. Jo'rayev S.S. Ota-onan qoramog'isiz qolgan bolalarni kasb tanlashga yo'naltirish kelajak poydevori. "Yetim va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar farovonligini ta'minlashning strategik modellari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi.Toshkent:O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti. 2022. 276 - b.
4. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
5. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 51-54).
6. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. World scientific research journal, 4(2), 7-11.
7. Абдурашидова, Н. А., & Xasanov, M. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 1226-1235.
8. Ramatov, J. S., Valiev, L. A., & Xasanov, M. N. (2022). XIX ASRDA HINDISTONDAGI IZHTIMOII-FALSAFIY JARAYONLAR.

9. Кушаков, Ф. А., Ҳасанов, М. Н., Баратов, Р. Ў., Раматов, Ж. С., & Султанов, С. Ҳ. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 803-810.
10. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
11. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНМОХИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
12. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENAISSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05), 1-6.
13. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENAISSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05), 1-6.
14. Ҳасанов, М. Н., Ҳафизов, Д. А., Тоиров, Р. Ҳ., & Болтабоев, Ҳ. Қ. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ.
15. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 582-586.
16. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.
17. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Ҳасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. *World scientific research journal*, 9(2), 37-42.
18. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1453-1458.